

**ROSSIYA VA FRANSIYA PREZIDENTLIK INSTITUTLARI:
KONSTITUTSIYAVIY ASOSLAR VA AMALIY SIYOSIY MEXANIZMLAR
TAQQOSIY TAHLILI**

O'rolov Shavkat O'razali o'g'li

Toshkent davlat Transport universiteti

Iqtisodiyot fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi 2-bosqich talabasi

shavkaturalov633@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ishda Rossiya va Fransiya prezidentlik institutlari qiyosiy tahlil qilinib, Rossiyada super-prezidentlik tizimining shakllanishi, vakolatlar kontsentratsiyasi va siyosiy markazlashuv jarayonlari o'rganiladi. Fransiya yarim-prezidentlik modeli bilan taqqoslash orqali hokimiyatlar bo'linishi, parlament nazorati va ijro hokimiyatining ishlash mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot markazlashgan boshqaruvning afzalliklari va cheklovlarini aniqlab, siyosiy muvozanatni kuchaytirishga oid takliflar beradi.

Kalit so'zlar: Prezidentlik instituti, super-prezidentlik, yarim-prezidentlik, federalizm, siyosiy tizim, parlament nazorati.

Abstract: This study presents a comparative analysis of the presidential institutions of Russia and France, examining the formation of Russia's super-presidential system, concentration of powers, and political centralization. By comparing it with France's semi-presidential model, the research analyzes the functioning of separation of powers, parliamentary oversight, and executive authority. The study identifies the advantages and limitations of centralized governance and proposes recommendations for strengthening political balance.

Keywords: Presidential institution, super-presidentialism, semi-presidential system, federalism, political system, parliamentary oversight.

Kirish. Hozirgi zamon siyosiy boshqaruv tizimlari tarkibida prezidentlik instituti davlat hokimiyatining markaziy bo'g'ini sifatida alohida ilmiy e'tiborni talab etadi. Ayniqsa Rossiya Federatsiyasi misolida ushbu institutning shakllanishi, evolyutsiyasi va amaldagi boshqaruv mexanizmlaridagi tutgan o'rni davlat siyosiy tizimining xarakterini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida maydonga chiqadi. 1993-yilgi Konstitutsiya asosida Rossiyada prezident davlat boshlig'i, konstitutsion kafolatlar himoyachisi va ijro hokimiyati hamda parlament o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi oliy siyosiy shaxs sifatida belgilangan bo'lib, uning vakolatlari nafaqat an'anaviy prezidentlik vazifalarini, balki strategik qarorlar qabul qilish, tashqi siyosatni belgilash va xavfsizlik tizimini boshqarish

kabi keng ko'lamli funksiyalarni o'z ichiga oladi. So'nggi o'n yilliklarda "hokimiyat vertikali" konsepsiyasining kuchayishi, ijro hokimiyatini markazlashtirish jarayonlari, federal tuzilmaning qayta konfiguratsiya qilinishi hamda siyosiy institutlar o'rtasidagi vakolatlar nisbatining o'zgarishi Rossiya prezidentining real siyosiy salohiyatini sezilarli darajada mustahkamladi.⁵⁶ Shu bois Rossiya prezident instituti nafaqat davlatning konstitutsion tuzilishi, balki uning siyosiy rejimi, boshqaruv samaradorligi va hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar dinamikasini o'rganishda ham asosiy nazariy - amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, Rossiyada formal ravishda federal tizim mavjud bo'lsada, amalda "super-prezidentlik modeli" hamda markazdan boshqariladigan siyosiy tizim shakllangan. Bunday tuzilmaning mohiyati, afzalliklari va kamchiliklarini ilmiy yondashuv asosida o'rganish bugungi siyosiy tahlillarda katta ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda Rossiya Federatsiyasining super-prezidentlik tizimi, federalizm amaliyoti va prezidentlik institutining real siyosiy mavqeini o'rganish maqsadida sifat tahlili (qualitative analysis) asosiy metod sifatida qo'llanildi. Tadqiqot davomida, avvalo, hujjatlar tahlili amalga oshirilib, Rossiya Federatsiyasining 1993-yilgi Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy o'zgartirishlar, federal qonunlar va Prezident farmonlari o'rganildi. Bu hujjatlar orqali prezident vakolatlarining real ko'lami, federal tuzilmaning huquqiy asoslari hamda markazlashtirish jarayonlari aniqlab chiqildi. Shuningdek, tadqiqotda taqqoslama tahlil metodidan foydalanilib, Rossiya modeli Fransiyaning yarim-prezidentlik tizimi bilan qiyoslandi. Bu qiyoslash hokimiyatlar bo'linishi, parlament nazorati, bosh vazirning mavqei va siyosiy muvozanatning ishlash darajasini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqotning yana bir muhim usuli, kontent tahlil (content analysis) bo'lib, prezident nutqlari, siyosiy konsepsiyalar, hukumat izohlari va "barqarorlik", "suveren demokratiya", "hokimiyat vertikali" kabi siyosiy diskurslar o'rganildi. Ushbu yondashuv Rossiyada markazlashuv qanday siyosiy asoslar bilan legitimlashtirilishini aniqlashga yordam berdi. Natijada metodlar uyg'unligi Rossiya siyosiy tizimining huquqiy modelidan tashqari, uning real ishlash mexanizmlarini ham tahlil qilishga imkon yaratdi.

Natijalar. Konsitutsiya davlat boshqaruvining muhim qism bo'lganligi sababli, birinchi navbatda, Rossiya konsitutsiyasi 1993 yilning 12 dekabrda umumxalq ovoz berishi yo'li bilan qabul qilingan Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga muvofiq Rossiya respublika boshqaruv shakliga ega demokratik federativ huquqiy davlatdir. Rossiya davlatining Rossiya Federatsiyasi va Rossiya deb nomlanishi bir xil ma'noni anglatadi (Konstitutsiyaning 1-moddasi). Rossiya Federatsiya sifatida Rossiya Federatsiyasining teng

⁵⁶ Huskey E. Presidential Power in Russia. – Armonk, NY : M. E. Sharpe, 1999. – 296 p.

huquqli sub'ektlaridan tashkil topadi. (Konstitutsiyaning 5-moddasi). R.F. sub'ektlari 21 ta respublikadan, 6 ta o'lkadan, 49 ta viloyatdan, ikkita federal ahamiyatga ega shahardan, bitta avtonom viloyatdan, 10 ta avtonom okrugdan iborat.⁵⁷ R.F. sub'ektlarining maqomi R.F. ning Konstitutsiyasi, shunga mos ravishda R.F. sub'ektlarining Konstitutsiya va nizomlari bilan belgilanadi. Sub'ektlarning maqomi R.F. va sub'ektlarning o'zaro kelishuvi orqali federal konstitutsiyaviy qonunlar asosida o'zgarishi mumkin (Konstitutsiyaning 65-moddasi).⁵⁸ R.F. davlat sifatida qonun bilan tasdiqlangan o'z davlat ramzlari - bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega. R.F. ning davlat tili rus tilidir. Poytaxti - Moskva shahri. R.F. hududida yagona fuqarolik o'rnatilgan. R.F. qonunchiligida davlat fuqaroligini olish va uni to'xtatish qoidalari belgilab qo'yilgan (Rossiya Federatsiyasi fuqaroligi to'g'risidagi qonuni 1991 yilda qabul qilinib, 1993 va 1995 yilda unga tuzatish va o'zgartirishlar kiritilgan). R.F. ning hududi o'z ichiga federatsiya sub'ektlarining hududlarini, suv va dengiz hamda havo hududlarini qamrab oladi. R.F. ning suvereniteti uning butun hududida amal qiladi. R.F. quyidagi belgilari bilan ajralib turadi: Konstitutsiya va qonunchiligining mavjudligi, federatsiya aktlarining ustuvorlik prinsipining amal qilishi, ya'ni, qoidaga ko'ra federal aktlar, Rossiya sub'ektlarining aktlariga ko'ra oliy yuridik kuchga ega ekanligi; davlat organlarining federal tizimi R.F. Prezidenti, Federal majlisi (parlament), Hukumati, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari, Konstitutsiyaviy Sud, Oliy Sud, Oliy Hakam sudi - ya'ni, sud tizimi yagonaligi, Bosh prokurori; – yagona ichki va tashqi siyosat yuritishi, mazkur ichki va tashqi siyosat R.F. sub'ektlarining ishtirokida shakllanib barcha organlari tomonidan amalga oshirilishi; R.F. ning xalqaro miqyosda tan olinishi, ya'ni uning xalqaro munosabatlarda teng huquqda ishtirok etishi; Qurolli kuchlarining Oliy Bosh Qo'mondoni rahbarlik qiladigan yagona federal Qurolli kuchlarining mavjudligi (R.F. Prezidenti Oliy Bosh Qo'mondoni hisoblanadi); ichki ishlar, xavfsizlik xizmatining yagona tizimi mavjudligi; – davlatning yagona pul-moliya tizimining mavjudligi (yagona pul birligi - rublning, soliq tizimi pul-kredit muomalalari Markaziy banki tomonidan amalga oshirilishi va hakoza); mulkning turli xil ko'rinishlari, iqtisodiy faoliyat va raqobatning erkinligi asosida tashkil topgan yagona iqtisodiy tizimning mavjudligini ko'rishimiz mumkin.⁵⁹

⁵⁷ Конституция Российской Федерации (с учетом поправок 2020 года) : текст с комментариями. – Москва : Проспект, 2021. – 192 с.

⁵⁸ Принята всенародным голосованием 12 декабря 1993 года с изменениями, одобренными в ходе общероссийского голосования 1 июля 2020 года.- URL: <https://xn--112-hddo8cng.xn--p1ai/wp-content/uploads/2019/06/Konstitutsiya-Rossijskoj-Federatsii.pdf>

⁵⁹ Краснов М. А., Шаблинский И. Г. Российская система власти: треугольник с четырьмя неизвестными. – Москва : Институт права и публичной политики, 2015. – 248 с.

Mezon	Rossiya	Fransiya
1. Siyosiy tizim turi	Super-prezidentlik tizimi	Semi-prezidentlik tizimi
2. Bosh vazirning mavqei	Prezidentga to‘liq bo‘ysunadi, tayinlash prezident qo‘lida	Parlament ko‘pchiligi bilan bog‘liq, parlament ishonchsizligi orqali almashinadi
3. Prezident vakolatlari	Juda keng: ichki, tashqi siyosat, hukumat faoliyati ustidan to‘liq nazorat	Tashqi siyosatda kuchli, ichki siyosatda Bosh vazir bilan vakolatlar bo‘linadi
4. Parlament bilan munosabatlar	Prezidentning roli ustuvor, parlament nazorati kuchsiz	Parlament hukumatni ishdan bo‘shata oladi, kuchli parlament nazorati
5. Siyosiy muvozanat	Hokimiyat tarmoqlari o‘rtasidagi muvozanat zaif, ijro hokimiyati kontsentratsiyasi yuqori	Kuchli muvozanat: Prezident–Bosh vazir–Parlament o‘rtasida vakolatlar tarqatilgan

Rossiya va Fransiya prezidentlik institutlarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ikki mamlakat siyosiy tizimi o‘zining tarixiy shakllanishi, konstitutsiyaviy tamoyillari va siyosiy madaniyatiga ko‘ra keskin farqlanadi. Rossiyada super-prezidentlik tizimi hukmron bo‘lib, bu tizim ijro hokimiyatining deyarli barcha asosiy vakolatlarini prezident qo‘lida to‘plab beradi. Shu sababli prezident davlat boshqaruvida eng yuqori va markaziy figura sifatida namoyon bo‘ladi. Buning aksiga, Fransiyada esa yarim-prezidentlik modeli amal qiladi va bu tizimda prezident hamda bosh vazir o‘rtasida vakolatlarining aniq bo‘linishi mavjud. Bosh vazir institutining mavqei ham ikki mamlakatda turlicha shakllangan. Rossiyada bosh vazir prezidentning siyosiy irodasiga to‘liq bog‘liq bo‘lib, uning tayinlanishi ham, faoliyati ham prezident bilan chambarchas bog‘langan. Fransiyada esa bosh vazir ko‘proq parlament bilan ishlaydi, chunki hukumatning siyosiy barqarorligi parlamentdagi ko‘pchilikni saqlab qolishiga bog‘liq. Parlament ishonchsizlik votumi orqali hukumatni iste’foga chiqarishi mumkin bo‘lgani uchun, ijro hokimiyatining siyosiy mas’uliyati yuqori. Prezident vakolatlari nuqtai nazaridan qaraganda, Rossiya prezidenti ichki va tashqi siyosatning barcha asosiy yo‘nalishlarini belgilab beruvchi kuchli arbob sifatida namoyon bo‘ladi. Fransiyada esa prezident asosan tashqi siyosatda ustun rol o‘ynaydi, ichki siyosatda esa bosh vazirning vakolatlari kengroq bo‘lib, hukumat faoliyatini bevosita u boshqaradi. Bu esa Fransiya tizimining vakolatlar bo‘linishi tamoyiliga Rossiya tizimiga qaraganda ko‘proq asoslanganligini ko‘rsatadi. Parlament bilan munosabatlarda ham sezilarli farqlar bor. Rossiya parlamenti ijro hokimiyati ustidan kuchli nazoratga ega emas, prezidentning siyosiy ustunligi aniq seziladi. Fransiyada esa parlament hukumatni bevosita javobgar qiladi va agar

siyosiy ishonchni yo'qotsa, uni ishdan bo'shatish mexanizmlari mavjud. Bu esa parlament nazorati samaradorligini oshiradi va hokimiyat tarmoqlari o'rtasida real muvozanatni yaratadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari Rossiya Federatsiyasi siyosiy tizimida prezidentlik institutining markaziy o'rni va uning real siyosiy ta'siri konstitutsiyaviy me'yorlardan ancha keng ekanini ko'rsatdi. Formal jihatdan federativ tuzilma saqlangan bo'lsa-da, amalda davlat boshqaruvi kuchli markazlashgan modelga asoslanadi. Federatsiya subyektlarining mustaqilligi cheklangan, eng muhim siyosiy qarorlar esa markaz, Prezident ma'muriyati tomonidan belgilab boriladi. Bu holat Rossiyada federalizmning ishlash mexanizmlarini sezilarli darajada zaiflashtiradi. Qiyosiy tahlil natijalari Fransiya va Rossiya tizimlari o'rtasida yaqqol farqlar borligini ko'rsatdi. Fransiyada parlament hukumatni nazorat qila oladi, bosh vazir mustaqil siyosiy figura sifatida muhim rol o'ynaydi. Rossiyada esa prezident ijro hokimiyatining deyarli barcha asosiy bo'g'inlarini nazorat qiladi, parlamentning siyosiy ta'siri esa cheklangan. Natijada Rossiya siyosiy tizimida hokimiyatlar bo'linishi tamoyili rasmiy jihatdan mavjud bo'lsa-da, amaliyotda u to'liq ishlamaydi. Mazmuniy tahlil esa prezident nutqlarida va siyosiy diskursda "barqarorlik", "suveren demokratiya", "hokimiyat vertikali" kabi tushunchalar markazlashuvni oqlash vositasi sifatida qo'llanayotganini ko'rsatdi. ⁶⁰Bu orqali davlat siyosati jamiyatga ideologik tarzda izohlanadi va mavjud boshqaruv modeli legitimlashtiriladi. Umuman olganda, tadqiqot Rossiya siyosiy tizimining asosiy xususiyati — kuchli prezidentlikka asoslangan markazlashgan boshqaruv modeli ekanini ko'rsatdi. Bunday tizim qisqa muddatda barqarorlik berishi mumkin, biroq uzoq muddatda federalizm, siyosiy muvozanat va demokratik tamoyillarning rivojlanishiga cheklov bo'lishi ehtimoli yuqori.

Xulosa. Rossiya Federatsiyasida prezidentlik instituti siyosiy tizimning eng asosiy va yetakchi bo'g'ini sifatida shakllangan. Markazlashgan boshqaruv modeli barqarorlikni ta'minlagan bo'lsa-da, federalizm tamoyillarining to'liq ishlamasligiga va hokimiyatlar bo'linishining zaiflashishiga olib kelgan. Rossiya va Fransiya tizimlarining qiyosiy tahlili ham Rossiyada siyosiy muvozanatning yetarli emasligini ko'rsatadi. Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ilgari surilishi mumkin: birinchidan, federalizm tamoyillarini mustahkamlash va hududlarning siyosiy hamda iqtisodiy mustaqilligini oshirish zarur. Ikkinchidan, parlament nazoratini kuchaytirish hokimiyatlar bo'linishining real ishlashini ta'minlaydi. Uchinchidan, prezident vakolatlarini bosh vazir va parlament bilan

⁶⁰ Политические и концептуальные основания трансформации государственного управления в современной России. Игнатова Анна Михайловна. — URL: <https://www.disscat.com/content/politicheskie-i-kontseptualnye-osnovaniya-transformatsii-gosudarstvennogo-upravleniya-v-sovr>

muvozanatlashtirish siyosiy tizimning barqarorligiga xizmat qiladi. To‘rtinchidan, mahalliy boshqaruv organlarini qo‘llab-quvvatlash hududiy rivojlanishni kuchaytiradi. Beshinchidan, siyosiy jarayonlarning ochiqqligini oshirish va pluralizmni rivojlantirish uzoq muddatli demokratik barqarorlikni mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Huskey E. Presidential Power in Russia. – Armonk, NY : M. E. Sharpe, 1999. – 296 p.
2. Конституция Российской Федерации (с учетом поправок 2020 года) : текст с комментариями. – Москва : Проспект, 2021. – 192 с.
3. Принята всенародным голосованием 12 декабря 1993 года с изменениями, одобренными в ходе общероссийского голосования 1 июля 2020 года.- URL: <https://xn--112-hddo8cng.xn--p1ai/wp-content/uploads/2019/06/Konstitutsiya-Rossijskoj-Federatsii.pdf>
4. Краснов М. А., Шаблинский И. Г. Российская система власти: треугольник с четырьмя неизвестными. – Москва : Институт права и публичной политики, 2015. – 248 с.
5. Политические и концептуальные основания трансформации государственного управления в современной России. Игнатова Анна Михайловна. – URL: <https://www.dissercat.com/content/politicheskie-i-kontseptualnye-osnovaniya-transformatsii-gosudarstvennogo-upravleniya-v-sovr>